

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**

**2018 yil yanvar-dekabr oyida viloyatda bajarilgan**

**QURILISH ISHLARI**

**KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari  
hajmi – 2442.5 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
tashkilotlari ulushi – 3.6 foiz*

*Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi – 55.0  
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi  
– 41.4 foiz*

2018 yilning yanvar-dekabr oyi bo'yicha viloyatda 2442.5 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106.1 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 3,0 foiz o'sdi.

Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 88.0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 84.0 foizni tashkil etdi.


Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 88.0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 84.0 foizni tashkil etdi. Shu jumladan,

Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 47.6 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 65.5 foizni tashkil etdi.

Jalaququq tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 24.0 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 139.4 foizni tashkil etdi.


Ulug'nor tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 12.5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 142.2 foizni tashkil etdi.

Ko'rgontepa tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 3.9 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 174.5 foizni tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 1343.5 mlrd. so'mni, tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108.0 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.

## 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da




## Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2342.8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 107.3 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 foiz o'sdi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 99.7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 82.8 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12.7 foiz kamaydi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 1011.0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 106.0 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 777.4 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 164.9 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 68.7 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika  
qo'mitasi**

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37*